

NUTQ ZANJIRINI HOSIL QILINISHIDA SEGMENT VA SUPERSEGMENT ELEMENTLARNING ROLI

Yadgarova Zebiniso Tolibovna

Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ma'lumki, fonologiyada nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, o'zgarishi, bo'g'in, intonatsiya, pauza, urg'u kabi fonetik hodisalar va ularga xos xususiyatlar haqida so'z yuritiladi. Nutqiy aloqa jarayonida qayd qilingan hodisalar yaxlit bir tizimga birlashib, nutqiy aloqani yuzaga keltiradi. Shuni inobatga olib, ushbu maqolada nutq zanjirini hosil qilinishida segment va supersegment elementlarning roli haqida so'z yuritimiz.*

Аннотация. *Известно, что фонология занимается такими фонетическими явлениями, как звуки речи, их образованием, изменением, слогом, интонацией, паузой, ударением и их характеристиками. События, зафиксированные в процессе речевого общения, объединяются в единую систему и создают речевое общение. Принимая это во внимание, в данной статье речь пойдет о роли сегментных и суперсегментных элементов в формировании речевой цепочки.*

Annotation. *It is known that phonology deals with phonetic phenomena such as speech sounds, their formation, change, syllable, intonation, pause, stress, and their characteristics. Events recorded in the process of speech communication are combined into a single system and create speech communication. Taking this into account, in this article we will talk about the role of segment and supersegment elements in the formation of a speech chain.*

Kalit so'zlar: *nutq zanjiri, segment va supersegment elementlar, nutq tovushlari, bo'g'in, intonatsiya, pauza, urg'u.*

Ключевые слова: *речевая цепь, сегментные и суперсегментные элементы, звуки речи, слог, интонация, пауза, ударение.*

Keywords: *speech chain, segment and supersegment elements, speech sounds, syllable, intonation, pause, stress.*

Nutq tovushlari sanalmish unli tovushlar urg'u oladi, bo'g'in hosil qiladi, bo'g'inlardan so'zlar tuziladi, so'zlardan birikmalar va gaplar tuziladi, so'z va gaplarning har biri ma'lum bir ohang hamda pauza bilan aytiladi. Ana shunday nutq zanjirining hosil qilinishida fonetik jihatdan segment (asosiy qism) va supersegment (ustama) elementlar deyarli bir xil ishtirok etadi. Ammo ular qo'llanishi jihatidan ayrim o'ziga xosliklarga ham ega¹.

Nutqning tovush tomoni segment (lotincha: segmentum — qirqim, parcha, bo'lak) va ustsegment (supersegment) birliklarga bo'linadi. Segment birliklar ketma-ket joylashadi, bir vaqtning o'zida 2 ta tovushni talaffuz qilib bo'lmaydi. "Supersegment elementlarni intonatsiya va uning komponentlari ohang, pauza (to'xtam), urg'u tashkil kiladi. Intonatsiyaning tarkibiy qismlariga logik va fraza (sintagma) urg'usi ham kiradi"². Supersegment (ustsegment) birliklar segment birliklar ustiga qo'yiladi va ularga turlicha tus beradi.

Shunday qilib, supersegment elementlar, asosan, uchga bo'linadi:

¹ Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent. 1991. – B. 42.

² Xojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent, 1985. – B 40.

1) intonatsiya; 2) pauza; 3) urg'u, (bo'g'in shartli ravishda supersegmentdir)³.

Intonasiya - lotincha baland ovoz bilan talaffuz etaman degan ma'noni bildiradi. Nutqning sintaktik ma'nolari va emotsional-ekspressiv bo'laklarini ifoda qilish uchun xizmat kiluvchi ritmik-melodik tomoni, ovozning baland-pastligi, ohangi intonatsiyadir.

Quyidagilar intonatsiyaning tarkibiy elementlari hisoblanadi:

- 1) nutq melodikasi;
- 2) nutq ritmi;
- 3) nutq intensivligi; 4) nutq tepmi;
- 5) nutq tembri;
- 6) logik va fraza urg'usi⁴.

Ko'rinadiki, intonatsiya nuqiy talaffuz bilan bog'liq murakkab kompleksdan iborat supersegment hodisadir. Intonatsiyada gap tezligi va gap ohangi haqida mulohaza yuritish maksadga muvofiqdir.

Shuningdek, supersegment elementlardan biri sanalmish pauza ma'lum darajada intonatsiya bilan bog'likdir. Ammo pauza turli maqsad va vazifaga ko'ra nutq oqimining to'xtashi, uzilishi hamda ko'proq subyektiv munosabatlarni reallashtiruvchi konnotativ ma'no bilan bog'lik kechinma bo'lganligi uchun logik-grammatik va uslubiy imkoniyatlarga ega. Pauza fiziologik va psixologik sabablarga ko'ra, gap va sintagmalarni ajratib talaffuz etish maqsadida, shuningdek, kesim yoki egani alohida ta'kidlash uchun, uyushgan bo'laklarni sanab ko'rsatish hamda ajratilgan bo'laklarni qayd etishda qo'llaniladi.

Pauza (grekcha: pauses-tinim olish) tovush to'xtashi, nutq oqimidagi uzilish demak⁵. Pauzaning musiqiy asarlar ijrosida tovushlarning muayyan vaqt to'xtalishi hamda shu vaqtni ko'rsatuvchi maxsus belgi ma'nosi xam bor. Kishilar orasidagi aloka-aralashuvda pauza noverbal informatsiya vositasi, uslubiy figura sifatida ishtirok etadi va situativ, ijtimoiy hamda psixologik omillar bilan bog'liq holda o'ziga xos ahamiyatga ega. Pauzada tinglovchi diqqatini tortish, araz, kuchaytirish, kinoya kabi qator konnotativ ma'nolar ifodalanadi.

Fonetikaning sillabika (bo'g'in) va intonatsiya bilan shug'ullanuvchi tarmoqlari badiiy adabiyot bilan uzviy bog'lik. She'rning vazn va turoqlari shular vositasida shakllanib, qator konnotativ ma'no kasb etadi.

O'zbek tilida urg'u supersegment (ustama) vositalardan biridir. U nutqda segment elementlar bilan birga qo'llaniladi. Urg'ular tilning turli sathlariga tushib nutq jarayoni zanjirini tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Urg'u fonetikaning aksentologiya bo'limida ham o'rganiladi. Aksentologiya (lot. accentus-urg'u, grek. logos-so'z, ta'limot) fonetikaning urg'uni (urg'uning tabiati, tipi, vazifasi va h.k.) o'rganuvchi bo'limi⁶.

Urg'u bu chuqur izlanishlarni talab etuvchi ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatli bo'lgan qaltis hodisadir⁷. Urg'uning vazifasi delimitivlik (ajratish – A.H.) bilan cheklanmaydi, balki

³ Haydarov A.A. Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi. Filologiya fanlari nomzodi diss...autoreferati. – T.:2009, – 21b.

⁴ Hojiyev A. Ko'rsatilgan asar. – B. 41.

⁵ Словар литературоведических терминов. – М.: Наука, 1974. – В. .89.

⁶ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent. O'qituvchi, 1985. – B. 54.

⁷ G'ulomov A. O'zbek tilida urg'u. – Toshkent, 1947. – B. 7.

so'zning birligini ta'minlashda va so'zlarning bir-biridan prosodik farqini ko'rsatuvchi differensial belgi bo'lib ham xizmat qiladi⁸.

Xulosa qilganda, urg'u semantik-grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan fonetik vositalardan biridir. Urg'u ta'sirida so'zning leksik va grammatik ma'nosi o'zgaradi. Bunday o'zgarish tufayli so'z va gapda qator konnotativ ma'no bo'yoqlari hosil bo'ladi. Urg'u vositasida paydo bo'lgan bunday ma'nolar badiiy tasvirning jonli, obrazli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Khayriddinkizi, K. K. (2021). Strategies of Improving Writing Skill for B1 Learners. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES, 2, 204–207.
<http://mrit.academiascience.org/index.php/mrit/article/view/125>
2. KOBILOVA NARGISA SULEYMANOVNA LITERARY PSYCHOLOGY AND STYLE THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука ISSN: 2308-4944eISSN: 2409-0085 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41328882>
3. Kodirova Kholida Khayriddin kizi. (2022). The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain. Miasto Przyszłości, 28, 324–328.
<http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/648>
4. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). The Term Concept in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 297–302. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/643>
5. Tolibovna, Y. Z., & Nodirovna, B. S. (2021). Phonetic figures of speech and super segmental phonetic devices. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 910-917. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=3&article=150>

⁸ O'rinboyev B. Ayub G'ulomov va o'zbek aksentologiyasi masalalari/ Ayub G'ulomov va o'zbek tilshunosligi. – Toshkent. 2004. – B. 12-14.